

SHAVKAT RAHMON SHE'RLARIDA TAVSIFIY LIRIKA

Shoiraxon Xo'jayeva

QDPI o'qituvchisi,

shoiraxonxojayeva85@gmail.com

Ziyodaxon Shokirova

QDPI

talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqola Shavkat Rahmon ijodidagi tavsifiy lirikani o'rganishga bag'ishlanadi. Unda shoir ijodidagi tabiat lirikasi tarannum etilgan she'rlar tahlilga tortilib, ularning zamiridagi ma'no qatlamlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *tavsifiy lirika, poetik o'ziga xoslik, tabiat lirikasi, ijtimoiy mavzular, band, ritm, uyg'unlik.*

Shavkat Rahmon qalami o'tkir, hajman qisqa misralarda katta ma'no ifodalay oladigan zabardast ijodkordir. Uning tabiat haqidagi she'rlari, ayniqsa, mashhur bo'lib, shoirning o'zigagina xos bo'lgan go'zal o'xshatishlar bilan bezatilgan. Shoirning she'rlari garchi tabiatni tarannum etsa-da, uning tag zamirida hayotiy muammolar, shoirning ichki kechinmalari yotganini ko'rishimiz mumkin. So'zimiz isboti sifatida shoirning bir qancha she'rlarini keltirib o'tishimiz mumkin:

*Suronlarni oralab o'tdim,
terakzorlar safi boshlandi.
Quyosh o'chdi, yondi bulutlar,
maysalarning ko'zi yoshlandi...
Vaqt og'adi, ulkan sukunat
yobonlarni bosadir toshday.
Biror sado qolmas olamda
yuragimning zarbidan boshqa. (1.49)*

Ushbu she'r bir qarashda tabiatning go'zal o'xshatmalar bilan boyitilgan tasviridek ko'rinsa-da, unda shoir qalbining bir bo'lagini, she'r yozilayotgandagi o'y-fikrlari, his-kechinmalarini ko'rishimiz mumkin. Shoir bu she'rni shunday tuyg'ular bag'rida, qalbi va ruhi tinchlik va sokinlikni juda-juda istayotgan damda yozadi. Birinchi misradanoq „suronlarni oralab o'tdim“ deya yozishi ham bejiz emas. She'rni o'qir ekanmiz, undagi noodatiy o'xshatishlarga duch kelamiz va bu o'xshatishlar tasavvurimizda go'zal manzarani jonlantiradi. Biz avval uchratmagan „Quyosh o'chdi, yondi bulutlar“ misralari shoirning hech kimnikiga o'xshamagan o'zgacha olami va hissiyotlari mavjudligini ko'rsatadi. Quyoshning o'chishi uning botishi demakdir. Maysalarning ko'zi esa shudringlardan yoshlanganini tushunishimiz mumkin. Shoir tushgan muhit shunchalar tinch ediki, ulkan sukunat yobonlarni toshday bosardi. Shoir she'r so'ngini shunday go'zal misralar bilan tugatadiki, o'quvchilarning tasavvuri lirik qahramon, ya'ni shoirning hissiyotlariga

bog'lanib ketadi. Sukunatning shunchalik go'zal tasvirini faqatgina Shavkat Rahmonning go'zal she'rlaridan topish mumkin.

Shoirning keyingi „Afsona” deb nomlangan she'rida uning tanqidiy fikrlarini uchratamiz. Ayniqsa, she'rning so'nggi misralarida shoirning fikrlari jamlanmasini ko'ramiz:

*Ko'kragimni maysaga bosib,
butalarning panasida jim,
keng kamarda cho'milayotgan
yulduzlarni uzoq kuzatdim.
ikki ko'zim o'ynar miriqib,
afsonaviy xilqat ochilar.
qasirlatib quruq shoxlarni
chakalakdan chiqar ovchilar.
vujudimga tarqalar titroq,
yurak toshga aylanib qoldi.
xayriyatki, bu oydin tunda
yulduzlarni bo'lmaydi otib. (1.52)*

She'r avvalida tabiat manzarasi shunchalik go'zal tasvirlanadiki, kitobxonning beixtiyor yulduzlarga mehri ortadi. Shoirning o'rnida o'zini tasavvur qilib ko'radi. Xuddi u kabi yulduzlarni kuzatib turganday bo'ladi. Shunday ekan, o'ziga qadrdon bo'lib qolgan yulduzlar oldiga kelgan ovchilar lirik qahramonga ham, o'quvchiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, qo'rquv va hadik tuyg'ularini paydo qiladi. She'r so'ngidagi misralar esa she'rning aslida ko'chma ma'noda yozilganini ko'rsatadi. Har bir insonga zarar keltirishni istab yuradigan, yulduzlarday yorqin insonlarning payini qirqmoqchi bo'lganlar ovchilarga o'xshatilsa, yulduzlarning o'zi shoir timsolidir. Garchi razil kimsalar ko'p bo'lsa-da, shoir bu she'rni yozgan damlarda, ya'ni oydin tunlarda yulduzlarni otib bo'lmaydi. Shoirning keyingi „Tong ochar ko'zlarin...” she'ri ham tabiatning go'zal lirikasidir;

*Tong ochar ko'zlarin erinib,
sevinchdan yig'laydi qiyloqlar,
chechaklar jilmayar sevinib,
shamolda cho'milar giyohlar, ...
Chumoli, mehnatkash chumoli,
kuyinma, atrofga bir qara-
maysalar, oh, qanday humoli,
dunyoni qilma ko'p masxara. (1.55)*

She'rning dastlabki bandlari tabiatning go'zal tasviri va shu go'zallikdan bahra olayotgan hasharotlar tasviri bilan boyitilgan. Ammo oxirgi to'rtlikda aynan chumoli to'pdan ajratiladi va uning mehnatkashligiga alohida urg'u qaratiladi. Xalqimizda mehnatkash va harakatchan insonlar chumoliga qiyoslanadi. Xalq ertaklarida ham chumolining mehnatsevarligi alohida ta'rif-u tavsif etiladi. Ammo Shavkat Rahmon she'riyatidagi poetik o'ziga xoslik shundaki, u an'anaviy yo'ldan bormaydi, bilaks, chumoli obrazi orqali o'zining bebaho umrini dunyodan bahramand bo'lish va tafakkur yuritish

oʻrniga faqat tirikchilik dardida yugurib-yelib oʻtkazib yuborayotgan insonlar fojiasini ochib beradi. Shoir unga xitoban: “Dunyoni qilma koʻp masxara” deya hayqiradi.

Shoirning navbatdagi sheʼrida ham uning yuragidagi armonlari oʻz ifodasini topgan:

*Oy sinigʻi toʻla suvloqqa
sharsharaday quyilgan yollar.*

*Bu yollarni silar mehribon
Shabadalar – maʼyus ayollar.*

Dastlabki banddanoq sheʼrning maʼyus kayfiyati bizni qamrab oladi. “Oy sinigʻi”, “quyilgan yollar”, “maʼyus ayollar” ifodalari ifodadagi maxzunlikni taʼminlagan. Keyingi misralardan bu gʻamginlikning sababi boʻy koʻrsatadi:

*...Biroq tunda oʻt-maysalarga
toʻkiladir kimning yoshlari?
Nega suvdan bechora otlar
koʻtarolmas ogʻir boshlarin?
Nima boʻlgan ularga axir
yo sehrlab qoʻyganmi suvloq
Nega jimlik bosgaan vohada
begʻam uxlar botirlar uzoq?(1.57)*

Ushbu misralardan bizga ayon boʻladiki, butun oʻtloq gʻamga botgan va bunga botirlar parvo ham qilishmaydi. Shoir ushbu manzara ortiga xalqning mustamlaka zamonidagi mudroq va mashaqqatli hayotini va begʻam rahbarlar timsolini singdirib yuborgan. Sheʼrni oʻqir ekanmiz, shoirning yuragini tilayotgan gʻamli oʻylariga biz ham sherik boʻlamiz. Sheʼrning katta taʼsir kuchini oʻzimizda his etamiz.

Shoirning navbatdagi, avvalgilariga nisbatan uzunroq sheʼri „Sayohat” ham tabiat orqali insonlar obrazini ochib bergan chiroyli sanʼat namunasidir:

*Tabiatning xilvat burchagi:
unutilgan, yovvoyi tuproq,
huvillagan togʻ-u toshlarni
qari quyosh sevadi koʻproq...
Qoʻl uzatsam, bulutlarga
oʻsib ketar qirmizi olma!
Nima boʻldi senga ey, diyor,
yuragimga gʻulgʻula solma?!
Zabt etgani kelmadim seni,
yeng ichida yoʻqdir pichogʻim.
Men Iskandar, Chingizxon emas,
osmon kabi ochiq quchogʻim.(1.62)*

Sheʼrda tasvirlanayotgan tabiat shunchalik yomonlardan va zugʻumlardan bezib ketgan ediki, har kimdan shubhalanar, oʻzini olib qochar edi. Shoir tabiat orqali insonlar va xalqni mohirona tasvirlaydi. Oʻqiganimiz sari tabiatdagi har bir detalga, qushlar-u daraxtlarga achinib ketamiz, ularning dardlariga sherik boʻlamiz. Sheʼr tili sodda, oʻqish uchun qulay, bir maromda. Tarixiy shaxslar nomini keltirish esa sheʼrning salmoqdorligini oshiradi.

O'zbek xalqining g'am-anduhlariga sababchi bo'lgan bosqinchilarni o'quvchilarga eslatib o'tadi.

...O'zim tog'da, yuragim tog'da,
qoyalarning tagida yurdim.
Kun nurida tovlangan qorda
odamlarning izlarin ko'rdim.
Ammo tog'dan tushganim sari
sezar edim badbo'y islarni,
ko'rar edim tulki, qashqirlar,
to'ng'izlar-u ilon izlarin...(1.59)

She'r achchiq kinoya va ko'chma ma'no ustiga qurilgan. Undagi tog' obrazini ziyolilar cho'qqisiga o'xshatsak, lirik qahramon cho'qqiga ko'tariladi, avval bu izlarni bosib o'tganlar izidan yuradi. Ammo cho'qqidan pastlayotganda g'alamis va razil kimsalarni uchratadi. Shoir ularni tulki va qashqirlarga o'xshatishi ham bejiz emas. Azaldan xalqimizda tulki ayyorlik, qashqir esa qonxo'rlik ramzidir. To'ng'iz va ilonlar ham doimo yomonlik, tanballik va razolat timsoli bo'lib kelgani hammamizga ma'lum.

Atoqli va ardoqli shoir Shavkat Rahmonning barcha she'rlari xalqimiz uchun sevimli. Uning har bir she'ri yurakka yaqin. Chunki shoir har bir she'rga yuragini qo'shadi. Yurakdan chiqqan so'z esa yurakka yetib boradi. Bugun insoniyat ma'naviyatga har qachongidan ham ko'proq ehtiyoj sezayotgan, chor-atrof ma'naviy tahdidlarga to'lgan bu zamonda Shavkat Rahmon she'riyatiga yanada ko'proq muhtojlik tuyamiz. Shoir asrlar osha bugungi kun kishilarini ham ogohlikka, hushyorlikka, uyg'oqlikka chorlab turganday go'yo. Bu esa shoir ijodining umrboqiyiligini ta'minlovchi xususiyatlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Rahmon. Abadiyat oralab. – Toshkent: Movarounnahr, 2012.
2. Shavkat Rahmon. saylanma. – Toshkent, 1997.
3. Shavkat Rahmon. Yurak qirralari. – Toshkent, 1981.
4. Zohidova, Durdon. "FAZLI FOREWORD TO AMIRI GAZELLE." *Journal of Modern Educational Achievements* 3 (2022): 167-171.
5. Lutfullaevna, Durdon Zohidova. "Artistic Writing in Uvaisi's Poetry." *ACADEMICIA: International Journal of Interdisciplinary Studies* 11 (2021): 468-471.
6. Zohidova, Durdon. "POETIC INTERPRETATION OF HIJRON IN NAVOI'S LYRICS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 359-361
7. Lutfullaevna, Durdon Zohidova. "Uvaysiy she'riyatida badiiy yozish." *ACADEMICIA: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali* 11 (2021): 468-471.
8. Khujaeva, Durdon Zohidova Shoirakhon. "HAMZA HAKIMZODA'S FAITHFUL POETRY." *Journal of Modern Educational Achievements* 5.5 (2023): 429-435.



9. Khujaeva, Durдона Zohidova Shoirakhon. "CREATIVE HISTORY OF ALISHER NAVOI'S WORK" NAZM UL JAVAHIR." *Journal of Modern Educational Achievements* 5.5 (2023): 436-441.
10. Kobilova, Z. B., and D. L. Zokhidova. "KOKAND LITERARY ENVIRONMENT." *Ann. For. Res* 65.1 (2022): 878-888.
11. DJURAEV, MM, and D. ZOHIDOVA. "O 'zbek adabiyoti tarixi fanining ishchi o 'quv dasturi (1-Kurs uchun)." (2019).
12. Lutfullaevna, Durдона Zokhidova. "Writing art in uwaysi poetry." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 468-471.
13. Yusupovna, Khasanova Barno. "Artistic Interpretation Of The Image Of Amir Temur In The Work Of Askad Mukhtar." *Journal of Positive School Psychology* (2023): 896-900.
14. S.Khujaeva. "[RHYTHMIC VARIATION IN ALISHER NAVOI'S WORK" NAZM UL-JAVAHIR](#)". *Pedagogy*, 2023, Vol. 7, No.1, 1244-1247.
15. Xo'jaeva, S. (2023). ALISHER NAVOIY IJODIDA IYMON TALQINI. *Academic research in educational sciences, 4(Conference Proceedings 1)*, 180-187.